

## TARBIYA IJTIMOIYLASHUVNING MUHIM OMILI SIFATIDA

**Normurodova Sabina Laziz qizi**

*Tel: +998934134705*

CHDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli haqida ma’lumot berilgan. Tarbiyaning doimiy o’zgarib boruvchi jarayon ekanligi, shaxs shakllanishi jarayonida mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi bиринчи bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o`ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltiriladi.*

**Kalit so`zlar:** ijtimoiy, tarbiya, maktabgacha ta’lim, faoliyat, mehnat, o’yin, maqsad, fazilat, ijobiy, kelajak, inson, imkoniyat.

**Annotation:** This article provides information about the role of upbringing in the development of a child’s personality. Information is provided about the fact that education is a constantly changing process, the connection between content, methods and organizational forms in the process of personality formation and the specific characteristics of education from the first stage to the end.

**Keywords:** social, education, preschool education, activity, work, the game, goal, virtue, positive, the future, a person, chance.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о роли образования в развитии личности ребенка. Приводятся сведения о том, что образование представляет собой постоянно меняющийся процесс, соотношение содержания, методов и форм организации в процессе формирования личности от первого этапа и до конца.

**Ключевые:** Социальный, образование, дошкольное образование, активность, работа, игра, цель, достоинство, позитивный, будущее, человек, шанс.

Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishi yoki yo`q qilishi mumkin. Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit yetakchi omil sanaladi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta`siri tarbiya asosida kechadi: bирinchidan, tarbiya ta`sirida muhit bera olmagan bilim, ma`umot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog`liq ko`nikma va malakalar hosil bo`ladi; ikkinchidan, tarbiya tufayli tug`ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga yetadi. uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta`sirini ham yo`qotish mumkin; to`rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta`sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzlusizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiy yetakchi o`ringa ega bo`lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta`sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosaga kelish mumkin.

Tarbiya-aniq maqsadlarni ko`zlab tizimli ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo`lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta’sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta’lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixi tajribasini o`zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro`y beradi. Natijada bola o`zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiiga kiradi.

Tarbiya va ta’lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo`lgan mazmunni tanlaydi, uning o`zlashtirishiga rahbarlik qiladi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo`shqinligi hisobga olinadi.

Shu munosabat bilan tarbiya jarayoni doimiy o`zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o`zgaradi, o’sayotgan odam shaxsiga ta’sir ko’rsatish usullari tobora xilma-xil bo`lib boradi.

Inson shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan o’tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog`liq bo`ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uзвиy tarzda qo`shiladi.

Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish bola uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo`ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o`ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ilk yoshdagи bolaning kattalar bilan muomalasining eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo`lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi.

Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo`yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog`liq bo`ladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki hayotning dastlabki yillarda kattalar bilan muloqot qilishni va buyumlar bilan predmetli o`yinlar olib borishni o`z ichiga oladigan jarayonlar bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya faoliyatining asosiy turlari hisoblanadi.

Ushbu faoliyatlar bolalarda aniq maqsadlarni ko`zlab mantiqiy fikrlash, hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topa olish, qaror qabul qilish va vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan rejalar tuzishga o’rgatadi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

- Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.

2. Teshabayeva, Z. S.(2021). Maktabgacha talim tashkilotida sahnalashtirish oyin faoliyati shakllari, turlari, ularni tashkil etish usullari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 268-271.
3. T. I. Urmonova “Maktabgacha yoshdagи bolalarning ijodiy qobiliyatlarini hamda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda Blum taksonomiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jurnal. Maktabgacha va maktab ta’limi 2024. 1-son 84 b.
4. Z.S.Teshabayeva Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro`li  
Муғаллим ҳәм үзликсиз билимленидириў 2024. 194-197 b.